

OMMAVIY OFERTA
(“GARMIN PAY” Promo-aksiyasida ishtirok etish uchun)

Toshkent sh.

“04” avgust 2025 y.

Ushbu “GARMIN PAY” promo-aksiyasida ishtirok etish uchun Ommaviy oferta (bundan keyin “Oferta” deb yuritiladi) “Kapitalbank” ATB (bundan keyin “Tashkilotchi” deb yuritiladi) nomidan Ustav asosida faoliyat yurituvchi Boshqaruv Raisi K.L. Mayevskiy, “EMJIEM” MChJ nomidan Sh.X. Umarov (bundan keyin “Sovg’a beruvchi” deb yuritiladi) tomonidan e’lon qilingan va o’tkaziladigan “GARMIN PAY” promo-aksiyasini (bundan keyin “Promo-aksiya” deb yuritiladi) o’tkazish tartibi, shartlari, joyi va muddatlarini belgilaydi va O’zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 369-moddasiga muvofiq **18 yoshga to’lgan O’zbekiston Respublikasi rezidenti bo’lgan jismoniy shaxslarning noaniq doirasiga (bundan keyin “Ishtirokchilar” deb yuritiladi)** yo’naltirilgan bo’lib, ularga Promo-aksiya (bundan keyin Promo aksiya deb yuritildi) doirasida o’tkaziladigan sovrinli o’yinlarda ishtirok etish imkoniyatini taqdim etish maqsadida tuzilgan.

Ushbu Ofertaning amaldagi tahriri www.kapitalbank.uz (bundan keyin “Sayt” deb yuritiladi) manzili bo’yicha Internet tarmog’ida va bankning Mobil ilovasida (bundan keyin “Ilova” deb yuritiladi) joylashtirilgan.

ATAMALAR VA TA’RIFLAR

Visa kartasi – xalqaro to’lov tizimlaridan foydalangan holda milliy yoki chet el valyutasidagi hisob raqamga ega karta.

Karta egasi – o’z nomida “Kapitalbank” ATB (keyingi o’rinlarda - Bank) tomonidan chiqarilgan Visa kartasiga ega bo’lgan jismoniy shaxs bo’lib, u ushbu oferta doirasida ishtirokchi hisoblanadi.

Karta ochish - Bankning istalgan filialida karta ochish uchun oflayn ariza berish orqali Tashkilotchining filialida karta hisob raqamini ochish uchun shartnoma tuzish.

To’lov - tovarlar yoki xizmatlarga milliy yoki chet el valyutasida haq to’lash.

I. OFERTA PREDMETI

1.1. Ushbu Oferta ishtirok etish shartlarini, Promo-aksiya va uning doirasida o’tkaziladigan sovrinli o’yinni o’tkazish tartibi va joyini belgilaydi, shuningdek, ushbu Oferta akseptlangan taqdirda Tashkilotchi va Ishtirokchi o’rtasida yuzaga keladigan boshqa huquqiy munosabatlarning mazmunini belgilaydi.

1.2. Promo-aksiyaning asosiy maqsadi aholining moliyaviy savodxonligini oshirishga hissa qo’shishdir.

1.3. Promo-aksiya o’tkazish muddatlari **01.08.2025 y. – 31.01.2026 y. gacha.**

1.4. Ushbu Promo-aksiya doirasida o’tkaziladigan sovrinli o’yin g’oliblari sonlar diapazonida tasodifiy son yuzaga kelishini yoki ro’yxatdan tasodifiy tanlovni taqdim etuvchi “Random.org” platformasi yoki shunga o’xshash boshqa platformalar yordamida aniqlanadi.

1.5. Promo-aksiya doirasida o’tkazilgan sovrinli o’yin natijalari haqida ma’lumot rasmiy saytda, Tashkilotchining ijtimoiy tarmoqlarida va ommaviy axborot vositalarida joylashtiriladi.

1.6. Tanlovda ishtirok etish Qoidalari:

1.6.1. Sovrinli o’yinda **Tashkilotchining** qarindoshi bo’lmagan, 18 yoshga to’lgan O’zbekiston Respublikasining rezidentlari ishtirok etishi mumkin.

1.6.2. Tashkilotchining quyidagi shartlarga javob bergan hamma mijozlari promo-aksiyaning ishtirokchilaridir:

1) Jismoniy shaxslar uchun har qanday valyutadagi (valyutalardagi) Visa Classic, Visa Gold, Platinum, Infinite, Visa Infinite Veneer, Visa Infinite Metal Edge kartalari (bundan keyin karta deb yuritiladi) egalari;

2) Bir kalendar oy ichida 500 000 so‘m va undan ortiq miqdorda (har bir valyuta ko‘rinishidagi ekvivalentida) tovar va xizmatlarni yagona chek bilan xarid qilganlar.

1.6.3 Hisobot oyida o‘ziga karta chiqargan mijozlar ham Promo-aksiya ishtirokchilaridir.

1.7. Sovrinli o‘yinlar Tashkilotchining ijtimoiy tarmoqlarida (Instagram) rasmiy sahifalaridagi jonli efir rejimida yoki Tashkilotchining messenjeridagi (Telegram) rasmiy kanalida ushbu ofertaning 1.8 bandida ko‘rsatilgan sanalar jadvaliga muvofiq bo‘lib o‘tadi, sanalar o‘zgargan taqdirda tashkilotchi bu haqda efirni o‘tkazishni boshlashdan avval www.kapitalbank.uz saytida yoki ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalarda e‘lon qiladi.

1.8. Sovrinli o‘yinlar va tasvirga olish jarayonlarini o‘tkazish jadvali:

Garmin soatlarini o‘ynash:
2025 y. 10 - sentyabrdan 15 - sentyabrgacha
2025 y. 10 – oktyabrdan 15 - oktyabrgacha
2025 y. 10 – noyabrdan 15 - noyabrgacha
2025 y. 10 – dekabrdan 15 - dekabrgacha
2026 y. 10 – yanvardan 15 - yanvargacha
2026 y. 10 – fevraldan 15 – fevralgacha

1.9. Sovrinli o‘yinlarni o‘tkazish jadvaliga muvofiq (1.8 b.) har safar Garmin soatlari o‘ynalganda quyidagi sovrinlar o‘ynaladi:

- **3 ta sovrin – 1 tadan Garmin soatlari;**

1 ta sovrinli o‘yinda g‘oliblar umumiy miqdori: 3 kishi.

1 ta sovrinli o‘yinda o‘ynaladigan soatlar umumiy miqdori: 3 dona.

Soatlar G‘olibga Bank bo‘limida 10 ish kuni davomida beriladi. Zarur hollarda, Tashkilotchi G‘olibdan shaxsni identifikatsiya qilish va Tashkilotchi va Ishtirokchi o‘rtasidagi qabul qilish-topshirish dalolatnomasini imzolash uchun bank filiallaridan birida ID-karta yoki pasportni taqdim etishni talab qilish huquqiga ega. G‘olib shaxsni aniqlash jarayonidan o‘tishni rad etgan taqdirda, Tashkilotchi sovrinni berishni rad etishga haqli, bunda Tashkilotchi topshirilmagan sovrinni keyingi sovrinli o‘yinda o‘ynashga haqli.

II. AKSEPT TARTIBI

2.1. Ushbu Ofertaning aksepti Ishtirokchi tomonidan Tashkilotchilarning Sovg‘asini qabul qilish orqali amalga oshiriladi;

2.1.1. Ushbu Ofertaning aksepti Ishtirokchi Ofertaning barcha shartlarini hech qanday istisno va/yoki cheklovlarsiz to‘liq va so‘zsiz qabul qilishini anglatadi hamda yozma kelishuv tuzish bilan barobardir.

2.1.2. Ushbu ofertani akseptlash orqali Ishtirokchi quyidagilarni tasdiqlagan hisoblanadi:

- ushbu Oferta shartlari bilan butunlay va to‘liq tanishib chiqqan, rozilik bildirgan va ularga rioya qilish majburiyatini olgan.

- unga tuzilayotgan Oferta mazmuni va ishtirokchi uchun yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan huquqiy oqibatlar tushunarli;

- huquqiy layoqatli/muomalaga layoqatli va Tashkilotchi bilan shartnomaviy munosabatlarga kirishish bo‘yicha qonuniy huquqini tasdiqlaydi.

2.2. Bunda, ushbu Ofertaning 2.1-bandida ko'rsatilgan harakatlarni amalga oshirgan barcha Ishtirokchilar Tashkilotchiga Ishtirokchining Tashkilotchiga taqdim etgan shaxsiy ma'lumotlarini (qog'oz va/yoki elektron manbalarda avtomatlashtirish vositalaridan foydalangan va/yoki foydalanmagan holda to'plash, yozish, tizimlashtirish, jamlash, saqlash, aniqlashtirish (yangilash, o'zgartirish), ajratib olish, foydalanish, uzatish (tarqatish, taqdim etish, ruxsat berish, shu jumladan shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlashni uchunchi shaxslarga topshirishda), shaxssizlantirish, bloklash, o'chirish, yo'q qilish), shuningdek, Ishtirokchining har qanday video va fotosuratlarini (shu jumladan Ishtirokchining roziligi bilan suratga olish orqali olingan) qayta ishlashga rozilik beradi.

Shuningdek, agar qachondir ushbu rozilikda ko'rsatilgan qayta ishlash maqsadlari uchun shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlash zarurati yuzaga kelsa, Ishtirokchi Tashkilotchiga o'zining shaxsiy ma'lumotlari va biometrik shaxsiy ma'lumotlarining har qanday maxsus toifalarini qayta ishlash huquqini (roziligini) beradi.

2.3. Tashkilotchi o'zgarishlar kiritilishidan kamida 5 kun oldin Tashkilotchining internet-resurslari orqali xabardor qilgan holda, Promo-aksiya to'g'risida qo'shimcha ma'lumotlarni e'lon qilish va Promo-aksiya shartlarini (ommaviy ofertani) bir tomonlama o'zgartirish huquqini o'zida saqlab qoladi.

II. MUKOFOTLASH

3.1. 3.1. 31.01.2026-yilgacha ushbu Oferta qoidalariga mos keladigan Kartani ochgan Ishtirokchilar sovrinlar o'yini ishtirokchilari bo'ladilar.

3.2. Sovrinlarni topshirish Bank filiallarida o'tkaziladi. Topshirishni foto/video tasvirga olishdan va keyinchalik foto/video materiallardan reklama maqsadlarida foydalanishdan bosh tortilgan taqdirda, shuningdek ShTH taqdim qilinmaganda va hujjatlar imzolanmaganda Tashkilotchi sovrinni topshirishni rad etish huquqiga ega. Tashkilotchi huddi shunday sovrinni keying sovrinli o'yinda qayta o'ynashi shart. Sovrinlarni topshirish Sovg'a beruvchi hisobidan va nomidan amalga oshiriladi.

3.3. Sovrinlarni topshirish barcha zarur hujjatlar taqdim etilgandan va Tashkilotchi hamda Ishtirokchilar o'rtasida qabul qilish-topshirish dalolatnomasi imzolangandan so'ng 10 bank kuni ichida amalga oshiriladi.

3.4. Ushbu aksiya bo'yicha sovrinni (sovrinlarni) olish munosabati bilan yuzaga kelgan (yoki kelishi mumkin bo'lgan) barcha tegishli soliqlar va davlat budjetiga majburiy to'lovlarni to'lash, agar mavjud bo'lsa, O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi va qonun hujjatlarida belgilangan tartibda sovrinni yutib olgan Ishtirokchiga yuklatiladi.

Sovg'a beruvchi, Tashkilotchi bilan kelishgan holda, sovrinlarni o'zgartirish huquqini o'zida saqlab qoladi, faqat ularning xususiyatlari aksiya reklama materiallarida ko'rsatilganidan yomonroq (qiymat jihatidan past) bo'lmasligi kerak.

3.5. Sovrin (sovrinlar) sohibi bo'lgan ishtirokchilar sovrinni almashtirishni talab qilishga yoki bosh sovrinning pul ifodasini talab qilishga, qo'shimcha haq to'lash yoki qiymatdagi farqni qaytarish sharti bilan sovrinni boshqa yuqori yoki pastroq qiymatga almashtirishni talab qilishga haqli emas.

3.6. Tashkilotchi bahsli vaziyatlar yuzaga kelgan hollardan yoki sovrinni topshirishdan tashqari, Ishtirokchilar bilan yozma muzokaralar olib bormaslik yoki boshqa aloqalar o'rnatmaslik huquqini o'zida saqlab qoladi.

3.7. Tashkilotchi ushbu ofertani istalgan vaqtda bekor qilish huquqiga ega. Tashkilotchi ushbu Oferta harakatini bekor qilish (to'xtatib turish) hodisasi yuz berishidan kamida 12 soat oldin o'zining

www.kapitalbank.uz veb-saytida Oferta bekor qilinganligi to'g'risidagi bildirishnomani joylashtirish majburiyatini oladi.

- 3.8.** Sovrin jamg'armasi:
- 18 dona Garmin soatlari.

IV. TOMONLAR JAVOBGARLIGI

4.1. Tomonlar ushbu Ommaviy oferta shartlarini bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq javobgar bo'ladilar.

4.2. Tashkilotchi Ommaviy oferta shartlarini lozim darajada bajarmaganlik uchun, agar bunday majburiyatlarning bajarilmasligi Tashkilotchining nazorat doirasidan tashqaridagi sabablarga ko'ra yuzaga kelgan bo'lsa, javobgar bo'lmaydi.

4.3. Tashkilotchi sovrin egasining sog'lig'iga (hayotiga), shuningdek sovrinlardan foydalanishning butun muddati davomida uchinchi shaxslarning mol-mulkiga, sog'lig'iga yoki hayotiga yetkazilgan har qanday zarar uchun hech qanday javobgarlikni o'z zimmasiga olmaydi.

4.4. Ushbu promo-aksiyani o'tkazishda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan barcha nizolar va kelishmovchiliklar Bank va Ishtirokchi o'rtasida xayrixohlik va o'zaro tushunish asosida muzokaralar orqali hal qilinadi. Kelishilmagan taqdirda, nizo sud tartibida ko'rib chiqiladi.

4.5. Agar bu majburiyatlarni bajarmaganlik Shartnoma tuzilganidan keyin ushbu Ommaviy ofertaning akseptidan keyin oldindan ko'ra olmagan yoki oqilona choralar bilan oldini ololmagan yengib bo'lmaydigan kuch holatlari (fors-major) oqibatida, shuningdek O'zbekiston Respublikasi davlat organlari, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan Tashkilotchi ushbu Ommaviy oferta bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishiga to'sqinlik qiluvchi tegishli dalolatnomalar (qarorlar va h.k.) qabul qilinganligi oqibatida yuzaga kelgan bo'lsa, tomonlar majburiyatlarni bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun javobgarlikdan ozod etiladi

V. AKSIYA ISHTIROKCHILARINI AKSIYA O'TKAZISH SHARTLARI, AKSIYANI TO'XTATIB TURISH YOKI MUDDATIDAN OLDIN TUGATISH HAQIDA XABARDOR QILISH TARTIBI

5.1. Promo-aksiya ishtirokchilarini uni o'tkazish shartlari va tartibi to'g'risida xabardor qilish bank bo'limlaridagi monitorlarda reklama roliklarini joylashtirish, bankning ijtimoiy tarmoqlardagi sahifasida, shuningdek internetda e'lonlar joylashtirish orqali amalga oshiriladi.

5.2. Ushbu promo-aksiya to'g'risidagi batafsil ma'lumot, shuningdek, Aksiya qoidalari Bankning rasmiy veb-saytida: www.kapitalbank.uz, "Aksiyalar" bo'limida joylashtiriladi.

5.3. Shuningdek, promo-aksiya haqida batafsil ma'lumotni bankning **1340** qisqa raqami yoki **(+998 71) 200-15-15** telefon raqami orqali olish mumkin.

5.4. Aksiyani o'tkazish muddatidan oldin to'xtatilgan, uni o'tkazish muddatlari uzaytirilgan yoki Qoidalarga o'zgartirishlar kiritilgan taqdirda, tegishli ma'lumotlar Bankning www.kapitalbank.uz veb-saytida "Aksiyalar" bo'limida joylashtiriladi.

VI. NIZOLARNI KO'RIB CHIQISH TARTIBI

6.1. Ushbu Ommaviy ofertadan kelib chiqadigan har qanday nizo yozma murojaat asosida tinch yo'l bilan hal qilinishi lozim. Murojaatni ko'rib chiqish muddati va uning mazmuniga qo'yiladigan talablar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

6.2. Agar yuzaga kelgan nizo tinch yo'l bilan hal etilmasa, u O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida nazarda tutilgan tartibda "Kapitalbank" ATB joylashgan joydagi tegishli sudda ko'rib chiqilishi kerak.

VII. OFERTA AMAL QILISH MUDDATI

7.1. Oferta Ishtirokchi tomonidan aksept amalga oshirilgandan so'ng kuchga kiradi va ushbu Ommaviy ofertaning 1.3-bandida ko'rsatilgan muddat tugagunga qadar yoki Tashkilotchi tomonidan bekor qilingunga qadar amal qiladi.

VIII. BOSHQA SHARTLAR

8.1. Ushbu Ofertada to'g'ridan-to'g'ri nazarda tutilmagan barcha holatlarda, Tomonlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga va ish muomalasi odatlariga amal qiladilar.

8.1. Shartnomaning amal qilishi 01.08.2025-yildan boshlab barcha huquqiy munosabatlar va konklyudent harakatlarga tatbiq etiladi

8.2. Agar ushbu Ofertaning biror qoidasi O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga ko'ra g'ayriqonuniy va/yoki haqiqiy bo'lmay qolsa, Ofertaning bunday qoidalari Tomonlar o'rtasidagi munosabatlarda qo'llanilmaydi va Ommaviy ofertada mavjud bo'lgan asl maqsadlarga maksimal darajada javob beradigan yangi qoidalar bilan almashtiriladi. Ofertaning qolgan barcha qoidalari o'z kuchini va haqiqiylikini saqlab qoladi.

8.3. Ushbu Oferta rus tilida e'lon qilingan.

IX. "KAPITALBANK" ATB MANZILI VA REKVIZITLARI

Yuridik manzil: Toshkent sh., Yunusobod tumani, Sayluoh ko'chasi, 7.

MFO: 01158; STIR: 207127843. Tel.: 200-45-45